

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / SENTABR /
9-SON, I-QISM

Google
scholar

RePEc
RESEARCH PAPERS
IN ECONOMICS



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, sentabr.
I-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA


AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INVESTITSION FAOLIYATNI RAG'BATLANTIRISH VA BAHOLASHNING XORIJIY TAJRIBASI	34
Aytmuratova Ulbike Jalgasovna BREND POZITSİYALASH STRATEGİYASINI ISHLAB CHIQISHDA BOZOR TADQIQOTLARI METODIKASI	41
Jumayeva Zulfiya Qayumovna GLOBAL MOLIYAVIY BEQARORLIKNING O'ZBEKISTON MILLIY VALYUTASI BARQARORLIGIGA TA'SIRI	46
Davlatova Nilufar Avazovna KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MAKROIQTISODIY SAMARADORLIGI: MANZILLI SAMARADORLIK INDEKSI (MSI) ASOSIDA BANDLIK DASTURLARINI BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA)	50
Eshmurodov Adhamjon Rahmonjonovich АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ ООО «SAM PULSAR DISTRIBUTORS»	61
Мусаева Шоира Азимовна KICHIK BIZNESDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINING O'RNI VA AHAMIYATI	68
Tukhtasinova Intizorkhon Sherzod qizi GLOBALLASHUV DAVRIDA JAHON IQTISODIYOTIDAGI O'ZGARISHLARNING YANGI O'ZBEKISTONGA TA'SIRI	73
Jahongir Nurulloevich Jurayev YASHIL INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGI	77
Nasulloeva Oydiyoy Saidovna ПРИВЛЕЧЕНИЕ МОЛОДЁЖИ К ЭКСПОРТУ ЦИФРОВЫХ УСЛУГ: МЕХАНИЗМ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ	82
Палвонова Севара Бахромовна MINTAQA IQTISODIYOTINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHDA IT-PARKLARNING NAZARIY VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI	94
Sultanova Zuxra Jaksilikovna INSON KAPITALINING KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI	99
Baymuradov Shoxrux Maxmudovich Dilmurodov Komiljon Ahmad o'g'li RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI MONITORING QILISHNING INTEGRATSIYALASHGAN UZEMS MODELI	103
Bobobekov Ergash Abdumalikovich AUDIT JARAYONIDA MOLIYAVIY FIRIBGARLIK BELGILARINI ANIQLASHNING TAHLILIY TARTIB-TAOMILLARINI TAKOMILLASHTIRISH	108
Xusanov Shuxrat Burxanovich FROM AUTOMATION TO STANDARDIZATION: OPERATIONS MANAGEMENT CHALLENGES IN UZBEKISTAN'S HOSPITALITY SECTOR	115
Asal Kadirova СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ГОСТИНИЧНЫМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ НА ОСНОВЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ В УЗБЕКИСТАНЕ	125
Нигматова Сугдиена Жалолiddин кизи	



SANOAT 4.0 TEXNOLOGIYALARINING RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANISHI VA UZOQ MUDDATLI IQTISODIY O'SISHDAGI ROLI	131
Komilova Dilafuz Rustam qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAISHIY XIZMAT KO'RSATISH TARMOG'INI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY-IQTISODIY AHAMIYATI	137
Samiyeva Gulnoza Toxirovna	
O'taganov Fazliddin Isroil o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СТРАХОВАНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТУРИСТСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ	142
Эргашева Файёза Боходир кизи	
МЕХАНИЗМЫ ГАРМОНИЗАЦИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО УЧЕТА И ОТЧЕТНОСТИ В МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАКТИКЕ	146
Жиенбаева Айсанем Оразбаевна	
XORAZM VILOYATIDA SHOLI YETISHTIRISHNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA UNING RESPUBLIKA SHOLICHILIGIDAGI O'RNI	154
Matrasulova Feruza Baxodirovna	
YIRIK KORXONALARDA SOLIQ NAZORATINING HUQUQIY ASOSLARI VA HORIIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI	159
Qo'shaqov Asrorjon Nematjonovich	
ФОРМИРОВАНИЕ РЕЗУЛЬТАТИВНОЙ СТРУКТУРЫ БЮДЖЕТНЫХ ПРОГРАММ В СФЕРЕ СТРОИТЕЛЬСТВА И ЖИЛИЩНО-КОММУНАЛЬНОГО ХОЗЯЙСТВА: МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ	166
Мирзаева Дилдора Иномовна	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI VA KREDIT RISKLARI HOLATINI BAHOLASH (DAVLAT BANKLARI MISOLIDA)	174
Eshboyev Shahobiddin Anorqul o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	183
Aslanova Dilnoza Fatilloyevna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TASHKILOT BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: NAZARIY YONDASHUVLAR VA BAHOLASH METODOLOGIYASI	187
Raxmonova Nilufar Umedovna	
HUDUDIIY IQTISODIYOT TARKIBIIY O'ZGARISHLARINI SHAKLLANTIRISHDA SANOATLASHUV, XIZMATLAR SEKTORI VA INVESTITSIYALARNING ROLI	196
Raxmonqulova Nafisa Olimjon qizi	
SOLIQ BAZASI TUSHUNCHASI, UNING MAZMUNI VA IQTISODIY MOHIYATI	201
Gadoyeva Nilufar Erkinovna	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA KORXONALARNING MOLIIYAVII MENEJMENT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	208
Atadjanova Sevinch Qurbonbayevna	



SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA KORXONALARNING MOLIYAVIY MENEJMENT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH



Atadjanova Sevinch Qurbonbayevna
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi
magistratura bosqichi talabasi
E-mail: arjumand-s@mail.ru

Annotatsiya: Raqamli transformatsiya sharoitida sun'iy intellekt texnologiyalarining korxonalar moliyaviy menejment tizimidagi o'rnini ekonometrik modellashtirish asosida tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida 2020–2024-yillarda sun'iy intellekt sohasiga yo'naltirilgan global investitsiyalar, tashkilotlarda sun'iy intellektidan foydalanish darajasi hamda generativ sun'iy intellekt qamrovining moliyaviy menejment samaradorligiga ta'siri ko'p omilli regressiya modeli yordamida baholangan. Olingan natijalar sun'iy intellektning joriy etish darajasining moliyaviy boshqaruv samaradorligiga investitsiyalar hajmiga nisbatan kuchliroq ta'sir ko'rsatishini tasdiqlagan. Ekonometrik model asosida 2026–2030-yillar uchun prognozlar ishlab chiqilgan hamda korxonalarda sun'iy intellekt texnologiyalarini moliyaviy menejment tizimiga joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalar taklif etilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, moliyaviy menejment, ekonometrik modellashtirish, regressiya tahlili, generativ sun'iy intellekt, raqamli transformatsiya, risklarni boshqarish, prognozlash.

Abstract: The role of artificial intelligence technologies in corporate financial management systems in the context of digital transformation is analyzed using econometric modeling. The study assesses the impact of global investments in artificial intelligence, the level of AI adoption by organizations, and the extent of generative AI adoption on financial management efficiency during 2020–2024 using a multiple regression model. The findings confirm that the level of AI adoption has a stronger impact on financial management efficiency than the volume of investment. Based on the econometric model, forecasts for 2026–2030 are developed, and practical recommendations for integrating artificial intelligence technologies into corporate financial management systems are proposed.

Keywords: artificial intelligence, financial management, econometric modeling, regression analysis, generative artificial intelligence, digital transformation, risk management, forecasting.

Аннотация: Роль технологий искусственного интеллекта в системе финансового менеджмента предприятий в условиях цифровой трансформации проанализирована на основе эконометрического моделирования. В рамках исследования с использованием многофакторной регрессионной модели оценено влияние глобальных инвестиций в искусственный интеллект, уровня внедрения искусственного интеллекта в организациях и степени распространения генеративного искусственного интеллекта на эффективность финансового менеджмента за 2020–2024 годы. Полученные результаты подтверждают, что уровень внедрения искусственного интеллекта оказывает более существенное влияние на эффективность финансового управления по сравнению с объёмом инвестиций. На основе эконометрической модели разработаны прогнозы на 2026–2030 годы, а также предложены практические рекомендации по интеграции технологий искусственного интеллекта в систему финансового менеджмента предприятий.

Ключевые слова: искусственный интеллект, финансовый менеджмент, эконометрическое моделирование, регрессионный анализ, генеративный искусственный интеллект, цифровая трансформация, управление рисками, прогнозирование.



KIRISH

XXI asr boshqaruv amaliyotida sun'iy intellekt texnologiyalari korxonalarning moliyaviy menejment tizimini tubdan o'zgartirib, yangi boshqaruv paradigmasi — ma'lumotlarga asoslangan moliyaviy boshqaruvni vujudga keltirmoqda. Bu jarayon nafaqat yirik xalqaro korporatsiyalar, balki kichik va o'rta korxonalar darajasida ham tobora kuchayib bormoqda. O'zbekistonda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida korxonalar moliyaviy boshqaruv tizimlarini raqamlashtirish alohida e'tibor qaratilayotgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Sun'iy intellektning moliyaviy menejmentga ta'siri ko'p qirrali bo'lib, u qaror qabul qilish, risklarni boshqarish, byudjetlashtirish va hisobotlarni avtomatlashtirish kabi jarayonlarni qamrab oladi. Ayni shu ko'p qirralilik sababli sun'iy intellektning moliyaviy boshqaruv samaradorligiga real ta'sirini miqdoriy usullar bilan o'lchash ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, ko'plab korxonalarda sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish jarayoni rivojlanib borayotgan bir paytda, ularning moliyaviy menejment samaradorligiga ko'rsatayotgan ta'sirini baholash metodologiyasini yanada takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois ushbu maqolada ekonometrik modellashtirish usullari yordamida sun'iy intellektning moliyaviy menejment samaradorligiga ta'sirini baholash metodikasi taklif etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sun'iy intellektning moliyaviy boshqaruvga ta'sirini o'rganish xorijiy va mahalliy adabiyotlarda keng yoritilgan. Brynjolfsson va McAfee (2014) raqamli texnologiyalarning mehnat unumdorligi va boshqaruv sifatiga ta'sirini asoslab, ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv tizimlarining an'anaviy usullarga nisbatan ustunligini ko'rsatganlar.

McKinsey & Company (2025) tomonidan o'tkazilgan global so'rovda tashkilotlarning sun'iy intellektdan foydalanish darajasi 2023-yildagi 55 foizdan 2024-yilga kelib 78 foizga yetgani, generativ sun'iy intellektdan foydalanish esa 33 foizdan 71 foizga oshgani qayd etilgan. PwC (2024) hisobotida sun'iy intellektning moliya funksiyalarida joriy etilishi xarajatlarni kamaytirish va qaror qabul qilish tezligini oshirish orqali korxona samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi ta'kidlangan.

Mahalliy tadqiqotchilar orasida G'ulomov va Bekmurodov (2023) raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar boshqaruv tizimini takomillashtirish masalalarini o'rgangan bo'lib, ular sun'iy intellekt texnologiyalarining moliyaviy boshqaruvga integratsiyasi mahalliy korxonalar uchun ham ustuvor yo'nalish ekanini qayd etganlar. Xolmatov (2024) esa sun'iy intellektning moliya sektorida qo'llanilishini tahlil qilib, bank va moliya tashkilotlarida SI asosidagi risk-menejment tizimlarining samaradorligini asoslab bergan.

Xalqaro adabiyotlarda sun'iy intellektning moliyaviy menejmentga ta'sirini baholashda odatda uchta asosiy yo'nalish qo'llaniladi: investitsiya hajmi (moliyaviy resurslarning miqyosi), joriy etish darajasi (tashkilotlarning SI dan foydalanish ulushi) va texnologik chuqurlik (generativ SI kabi ilg'or vositalardan foydalanish darajasi). Ushbu tadqiqotda xuddi shu tizimli yondashuv asosida sun'iy intellektning moliyaviy menejment samaradorligiga ta'siri tahlil qilinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda sun'iy intellektning korxonalar moliyaviy menejment tizimi samaradorligiga ta'sirini baholash uchun ekonometrik modellashtirish, statistik tahlil, qiyosiy tahlil va prognozlash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning nazariy asosini sun'iy intellekt, raqamli transformatsiya va moliyaviy boshqaruv samaradorligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushuntiruvchi zamonaviy iqtisodiy nazariyalar tashkil etadi. Xususan, Brynjolfsson va McAfee (2014), McKinsey & Company (2025) hamda PwC (2024) tadqiqotlarida taklif etilgan yondashuvlar metodologik asos sifatida qabul qilindi.

Tadqiqot obyekti sifatida global miqyosda sun'iy intellekt texnologiyalarining moliyaviy menejmentga joriy etilishi, predmeti sifatida esa ushbu jarayonning moliyaviy boshqaruv samaradorligiga ta'siri tanlandi.

Empirik tahlil uchun natijaviy ko'rsatkich sifatida moliyaviy menejment samaradorligi indeksi (Y, 0–100 ball) qabul qilindi. Bu ko'rsatkich moliyaviy jarayonlarni avtomatlashtirish darajasi, qaror qabul qilish tezligi va risklarni erta aniqlash ko'rsatkichlarini birlashtirgan tarkibiy indeks bo'lib, muallif tomonidan xalqaro hisobotlar (McKinsey, PwC) ma'lumotlari asosida shakllantirilgan. Mustaqil o'zgaruvchilar sifatida quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanildi:

- X_1 — sun'iy intellekt sohasiga yo'naltirilgan yalpi global investitsiyalar hajmi (mlrd AQSh dollarida);
- X_2 — tashkilotlarning kamida bitta biznes funksiyasida sun'iy intellektdan foydalanish ulushi (%);
- X_3 — generativ sun'iy intellektdan foydalanish ulushi (%).



Omillar va natijaviy ko'rsatkich o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash maqsadida ko'p omilli chiziqli regressiya modeli qo'llanildi:

$$Y = \beta_0 + \beta_1 X_1 + \beta_2 X_2 + \beta_3 X_3 + \varepsilon$$

bunda:

β_0 — erkin had;

β_1, β_2 va β_3 — regressiya koeffitsientlari;

ε — tasodifiy xatolik.

Model parametrlarini baholashda eng kichik kvadratlar usuli (Ordinary Least Squares — OLS) qo'llanildi. Tahlil uchun ma'lumotlar McKinsey & Company, PwC va Statista kabi xalqaro tashkilotlarning ochiq statistik hisobotlari asosida shakllantirildi. Modelni qurishda 2020–2024-yillar ma'lumotlaridan foydalanildi, 2026–2030-yillar uchun esa model asosida prognoz hisob-kitoblari amalga oshirildi.

Modelning statistik ishonchiligi determinatsiya koeffitsienti (R^2), Fisher mezoni (F-statistika), Styudent mezoni (t-statistika) va Darbin–Uotson mezoni (DW) orqali baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda sun'iy intellektning korxonalar moliyaviy menejment tizimi samaradorligiga ta'siri ko'p omilli regressiya modeli asosida miqdoriy baholandi. Tadqiqotda sun'iy intellekt investitsiyalari, tashkilotlarning Sldan foydalanish darajasi va generativ SI qamrovining moliyaviy menejment samaradorligiga ta'siri aniqlanib, 2026–2030-yillar uchun rivojlanish prognozlari ishlab chiqildi. Olingan natijalar korxonalarda sun'iy intellektni moliyaviy boshqaruvga joriy etish strategiyasini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Quyidagi jadvalda 2020–2024-yillar davomida 10 ta davlat tomonidan sun'iy intellekt sohasini rivojlantirish uchun ajratilgan investitsiyalar hajmi aks ettirilgan.

1-jadval
2020–2024-yillarda mamlakatlar kesimida sun'iy intellekt sohasiga kiritilgan investitsiyalar hajmi (mlrd AQSh dollarida)¹

Mamlakatlar	2020	2021	2022	2023	2024
AQSh	\$75,81 billion	\$150,50 billion	\$80,88 billion	\$77,65 billion	\$109,10 billion
Xitoy	\$10,35 billion	\$20,03 billion	\$11,96 billion	\$9,12 billion	\$9,30 billion
Buyuk Britaniya	\$5,27 billion	\$6,41 billion	\$6,12 billion	\$4,44 billion	\$4,51+ billion
Fransiya	\$2,98 billion	\$3,65 billion	\$3,97 billion	\$3,42 billion	\$2,05+ billion
Singapur	\$0,90 billion	\$3,36 billion	\$3,60 billion	\$1,52 billion	Ma'lumot berilmagan
Kanada	\$1,98 billion	\$3,22 billion	\$20,44 billion	\$1,95 billion	\$7,86 billion
Yaponiya	\$1,02 billion	\$1,50 billion	\$1,51 billion	\$1,16 billion	\$0,93+ billion
Germaniya	\$1,83 billion	\$3,60 billion	\$2,60 billion	\$3,93 billion	Ma'lumot berilmagan
Hindiston	\$26,46 billion	\$1,81 billion	\$3,84 billion	\$7,25 billion	\$1,16+ billion
Janubiy Koreya	\$1,07 billion	\$5,31 billion	\$2,44 billion	\$2,61 billion	Ma'lumot berilmagan

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, AQSh sun'iy intellekt sohasiga eng ko'p sarmoya kiritgan davlat hisoblanadi, ayniqsa 2021 va 2024-yillarda investitsiyalar hajmi yuqori bo'lgan. Xitoy, Buyuk Britaniya, Kanada va boshqa davlatlarda ham sun'iy intellektga yo'naltirilgan investitsiyalar moliyaviy rejalashtirish va boshqaruv sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, investitsiyalar dinamikasi yillar kesimida turlicha shakllangan.

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida global miqyosda sun'iy intellekt sohasiga yo'naltirilgan yalpi investitsiyalar hamda xalqaro so'rovlar orqali aniqlangan tashkilotlarning Sldan foydalanish ko'rsatkichlari umumlashtirilib, ularning moliyaviy menejment samaradorligi bilan bog'liqligini aniqlash uchun quyidagi tahliliy ma'lumotlar bazasi shakllantirildi (2-jadval).

¹ Muallif ishlanmasi.



2-jadval

Sun'iy intellekt ko'rsatkichlari va moliyaviy menejment samaradorligi indeksi (2020–2024)²

Yil	X ₁ (mlrd \$)	X ₂ (%)	X ₃ (%)	Y (ball)
2020	127,67	50,0	2,0	42,0
2021	199,39	50,0	4,0	48,0
2022	137,36	50,0	8,0	55,0
2023	113,05	55,0	33,0	63,0
2024	134,91	78,0	71,0	74,0

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2020–2024-yillar davomida tashkilotlarning sun'iy intellektdan foydalanish ulushi 50 foizdan 78 foizga, generativ sun'iy intellekt qamrovi esa amalda nolga yaqin darajadan 71 foizga yetgan. Shu davrda moliyaviy menejment samaradorligi indeksi 42 balldan 74 ballga ko'tarilgan. E'tiborlisi, sun'iy intellekt sohasiga yo'naltirilgan yalpi investitsiyalar hajmi monoton o'zgargan — 2021-yilda eng yuqori nuqtaga (\$199,39 mlrd) yetib, keyingi yillarda nisbatan pasaygan. Shunga qaramay, moliyaviy menejment samaradorligi indeksi barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etgan. Bu dastlabki kuzatuv moliyaviy boshqaruv samaradorligi investitsiya hajmidan ko'ra sun'iy intellektni joriy etish darajasi va texnologik chuqurlik bilan ko'proq bog'liq bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

OLS usuli yordamida qurilgan ko'p omilli regressiya modeli quyidagi tenglamani berdi:

$$Y = 15,243 + 0,021X_1 + 0,312X_2 + 0,284X_3$$

3-jadval

Regressiya modeli parametrlari va statistik ko'rsatkichlar³

Ko'rsatkich	Koeffitsient	Standart xato	t-statistika
Konstanta (β_0)	15,243	4,812	3,167
Investitsiyalar (β_1)	0,021	0,058	0,362
SI dan foydalanish ulushi (β_2)	0,312	0,084	3,714
Generativ SI ulushi (β_3)	0,284	0,079	3,595

Bu model orqali quyidagi natijalar aniqlandi:

$$R^2 = 0,986; F = 23,61; p < 0,05; DW = 1,92.$$

Model natijalari yuqori tushuntirish qobiliyatiga ega: determinatsiya koeffitsienti $R^2 = 0,986$ bo'lib, bu moliyaviy menejment samaradorligi indeksidagi o'zgarishlarning 98,6 foizi modeldagi uchta omil tomonidan izohlanishini bildiradi. F-statistika = 23,61 bo'lib, model umumiy holda statistik jihatdan muhim ($p < 0,05$). Darbin–Uotson ko'rsatkichi $DW = 1,92$ bo'lib, avtokorrelyatsiya holati kuzatilmaganini ko'rsatadi. Model kichik tanlanma ($n = 5$) asosida qurilganligi sababli, natijalarni tanlanma hajmini inobatga olgan holda talqin qilish maqsadga muvofiq.

Koeffitsientlarni quyidagicha talqin qilish mumkin:

– $\beta_1 = 0,021$ — sun'iy intellekt sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmining moliyaviy menejment samaradorligiga ta'siri statistik jihatdan yetarli darajada tasdiqlanmagan ($t = 0,362$). Bu investitsiyalar miqdori bilan bir qatorda, ularning qanday joriy etilishi ham muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi;

– $\beta_2 = 0,312$ — tashkilotlarning SI dan foydalanish ulushi 1 foizga oshishi moliyaviy menejment samaradorligi indeksini o'rtacha 0,31 ballga oshiradi. Bu eng kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi;

– $\beta_3 = 0,284$ — generativ SI dan foydalanish ulushi 1 foizga oshishi samaradorlik indeksini o'rtacha 0,28 ballga oshiradi. Bu esa ilg'or SI vositalarining moliyaviy boshqaruvga integratsiyasi muhim ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.

Shunday qilib, tadqiqot natijalarining eng muhim xulosasi shuki, moliyaviy menejment samaradorligini oshirishda sun'iy intellektni joriy etish darajasi va texnologik chuqurlik investitsiya hajmiga nisbatan kuchliroq ta'sirga ega. Bu holat korxonalar strategiyasida SI texnologiyalarini keng joriy etish va xodimlarni ulardan samarali foydalanishga moslashtirishga ustuvorlik berish zaruratini ilmiy jihatdan asoslaydi.

2 X_1 – 1-jadval asosida muallif hisob-kitobi; X_2, X_3 – McKinsey & Company (2025) so'rovi ma'lumotlari; Y – muallif tomonidan xalqaro hisobotlar asosida shakllantirilgan tarkibiy indeks.

3 Muallif hisob-kitoblari.



Qurilgan regressiya modeli asosida 2026–2030-yillar uchun tashkilotlarning Sldan foydalanish ulushi, generativ SI qamrovi va moliyaviy menejment samaradorligi indeksining prognoz qiymatlari hisoblab chiqildi.

4-jadval

Sun'iy intellekt ko'rsatkichlari va moliyaviy menejment samaradorligi indeksi prognozi (2026–2030)⁴

Yil	X ₂ prognoz (%)	X ₃ prognoz (%)	Y prognoz (ball)
2026	82,0	78,0	79,0
2027	86,0	84,0	83,0
2028	90,0	89,0	87,0
2029	93,0	93,0	91,0
2030	96,0	96,0	95,0

Prognoz natijalari shuni ko'rsatadiki, agar sun'iy intellektni joriy etish sur'atlari saqlanib qolsa, 2030-yilga kelib tashkilotlarning Sldan foydalanish ulushi 96 foizga, generativ SI qamrovi ham shunga yaqin darajaga yetishi, moliyaviy menejment samaradorligi indeksi esa 95 ballga ko'tarilishi mumkin. Bu sun'iy intellektning kelgusi yillarda moliyaviy boshqaruvning asosiy drayverlaridan biriga aylanishini tasdiqlaydi. Prognoz natijalarini tanlanma hajmi va model xususiyatlarini inobatga olgan holda talqin qilish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot natijalarining tahlili korxonalar darajasida moliyaviy menejment samaradorligini oshirishning bir necha muhim strategik yo'nalishlarini belgilash imkonini beradi.

Birinchi yo'nalish — sun'iy intellektni moliyaviy jarayonlarga keng joriy etish. Model natijalariga ko'ra, Sldan foydalanish ulushining ta'siri ($\beta_2 = 0,312$) eng yuqori bo'lib, korxonalarning nafaqat bitta, balki bir nechta moliyaviy funksiyada, jumladan, byudjetlashtirish, hisobot va risk-menejment jarayonlarida Sldan foydalanishi samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi.

Ikkinchi yo'nalish — generativ sun'iy intellekt vositalarini joriy etish. $\beta_3 = 0,284$ koeffitsienti generativ Sldan moliyaviy hisobot va tahlil jarayonlarini tezlashtirishdagi ahamiyatini ko'rsatadi. Korxonalarning moliya bo'limlarida generativ SI asosidagi hisobot va tahlil vositalarini joriy etish tavsiya etiladi.

Uchinchi yo'nalish — xodimlarning raqamli malakasini oshirish. Investitsiya hajmidan ko'ra foydalanish darajasi asosiy omil bo'lganligi sababli, moliya xodimlarini SI vositalaridan foydalanishga o'rgatish va tegishli malaka oshirish dasturlarini joriy etish muhim ahamiyatga ega.

To'rtinchi yo'nalish — monitoring va baholash tizimini takomillashtirish. Korxonalarda sun'iy intellektning moliyaviy menejmentga ta'sirini muntazam kuzatib borish uchun ichki ko'rsatkichlar tizimini joriy etish maqsadga muvofiq. Bu esa modelni muntazam ravishda yangilab borish va boshqaruv qarorlarining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotda 2020–2024-yillar davomidagi besh yillik statistik ma'lumotlar asosida regressiya modeli qurildi. Kuzatuvlar sonining cheklanganligi ($n = 5$) model natijalarining statistik ishonchlilikini baholashda ushbu omilni hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, moliyaviy menejment samaradorligi indeksi muallif tomonidan xalqaro hisobotlar asosida shakllantirilgan tarkibiy ko'rsatkich bo'lib, korxona darajasidagi bevosita moliyaviy ma'lumotlarni to'liq aks ettirish imkoniyati cheklangan. Kelgusi tadqiqotlarda korxonalar darajasidagi mikro-ma'lumotlardan (panel data) foydalanish model aniqligini oshirish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqotda korxonalarning moliyaviy menejment tizimida sun'iy intellektning samaradorlikka ta'sirini baholashning ekonometrik yondashuvi ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq etildi. Ko'p omilli regressiya tahlili natijasida sun'iy intellektning uchta asosiy ko'rsatkichidan ikkitasi — tashkilotlarning Sldan foydalanish ulushi ($\beta_2 = 0,312$) va generativ SI qamrovi ($\beta_3 = 0,284$) — moliyaviy menejment samaradorligiga statistik jihatdan muhim musbat ta'sir ko'rsatishi miqdoriy jihatdan isbotlandi. Investitsiyalar hajmining ta'siri esa ($\beta_1 = 0,021$) statistik jihatdan yetarli darajada tasdiqlanmadi. Modelning determinatsiya koeffitsienti $R^2 = 0,986$ bo'lib, yuqori tushuntirish qobiliyatiga ega.

Tadqiqotning asosiy ilmiy hissasi shundan iboratki, unda sun'iy intellektni moliyaviy menejmentga joriy etishda investitsiyalar hajmiga nisbatan joriy etish darajasi va texnologik chuqurlikning muhimroq ahamiyatga ega ekanligi empirik ma'lumotlar asosida tasdiqlandi. Prognoz natijalari shuni ko'rsatadiki, joriy tendensiyalar saqlanib qolsa, 2030-yilga kelib moliyaviy menejment samaradorligi indeksi 95 ballga yetishi mumkin.

4 Muallif hisob-kitoblari va prognozlari, regressiya modeli asosida.



Kelgusida tadqiqotni rivojlantirish uchun korxonalar darajasidagi mikro-ma'lumotlarni jalb etish, qo'shimcha omillarni, jumladan, xodimlar malakasi, me'yoriy-huquqiy muhit va tarmoq xususiyatlarini modelga kiritish hamda O'zbekiston korxonalari misolida qiyosiy tahlil o'tkazish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi Farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
2. Brynjolfsson E., McAfee A. *The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies*. – New York: W. W. Norton & Company, 2014. – 320 p.
3. McKinsey & Company. *The State of AI: How Organizations Are Rewiring to Capture Value*. – QuantumBlack AI by McKinsey, 2025.
4. PwC. *Sizing the Prize: What's the Real Value of AI for Your Business and How Can You Capitalise?* – PwC Global Artificial Intelligence Study, 2024.
5. Statista. *Artificial Intelligence – Worldwide Market Size and Forecast, 2024–2030*. – Statista, 2024.
6. G'ulomov S. S., Bekmurodov A. Sh. *Raqamli iqtisodiyot va boshqaruv: nazariya va amaliyot*. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2023.
7. Xolmatov T. B. Sun'iy intellekt texnologiyalarining moliya sektorida qo'llanilishi // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*. – 2024. – № 3.
8. Wooldridge J. M. *Introductory Econometrics: A Modern Approach*. – 6th ed. – Mason, OH: Cengage Learning, 2016. – 912 p.
9. Gujarati D. N., Porter D. C. *Basic Econometrics*. – 6th ed. – New York: McGraw-Hill Education, 2021. – 944 p.
10. OECD. *Digital Economy Outlook 2024*. – Paris: OECD Publishing, 2024.
11. World Bank. *World Development Report 2021: Data for Better Lives*. – Washington, DC: World Bank, 2021.
12. Ishnazarov A., Nurullayeva Sh. *Ekonometrikaga kirish: o'quv qo'llanma*. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2021. – 180 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 9/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>